

YAPON TILIDA HIRAGANA YOZUV TIZIMINING SHAKLLANISHI VA LINGVISTIK ASOSLARI

Aliqulov Jaxongir Muhiddinovich

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Yapon tili "lingvistika" mutaxassisligi 1-kurs talabasi.

E-mail: jaxongiraliqulov@gmail.com

muaythaijaxa@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yapon yozuv tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblangan hiragana yozuv tizimining shakllanish jarayoni lingvistik va tarixiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda hiragananing kanji yozuvidan kelib chiqishi, manyogana tizimi orqali fonetik yozuvga o'tish bosqichlari hamda grafematik va fonologik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, yapon tilining mora asosidagi fonologik tuzilishi hiragana yozuvining shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatgani ilmiy manbalar asosida izohlanadi. Maqolada hiragana yozuv tizimining Heian davridagi sotsiolingvistik ahamiyati ham ko'rib chiqilib, uning yapon adabiy tilining milliylashuvidagi o'rni asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari hiraganani nafaqat fonetik yozuv tizimi, balki yapon tilining milliy lingvistik fenomeni sifatida baholash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: hiragana, yapon yozuvi, manyogana, fonologiya, grafematik evolyutsiya, mora.

ФОРМИРОВАНИЕ И ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПИСЬМЕННОСТИ ХИРАГАНА НА ЯПОНСКОМ ЯЗЫКЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается процесс формирования письменности хирагана как одного из ключевых компонентов японской письменной системы с лингвистической и исторической точек зрения. В исследовании анализируются происхождение хираганы из иероглифической письменности, роль системы манъёгана в переходе к фонетическому письму, а также графемные и фонологические особенности хираганы. Особое внимание уделяется влиянию морфической структуры японского языка на становление хираганы как устойчивой фонетической системы. Кроме того, освещается социолингвистическое значение хираганы в эпоху Хэйан и её роль в процессе национализации японского литературного языка. Результаты исследования

позволяют рассматривать хирагану не только как фонетическую письменность, но и как важный национальный лингвистический феномен.

***Ключевые слова:** хирагана, японская письменность, манъёгана, фонология, графематическая эволюция, мора.*

THE FORMATION AND LINGUISTIC FOUNDATIONS OF THE HIRAGANA WRITING SYSTEM IN JAPANESE

ABSTRACT

This article examines the formation of the hiragana writing system, which constitutes a fundamental component of the Japanese writing system, from a linguistic and historical perspective. The study analyzes the origins of hiragana derived from kanji, the transitional role of the manyogana system in the development of phonetic writing, and the graphic and phonological characteristics of hiragana. Particular attention is given to the influence of the mora-based phonological structure of the Japanese language on the establishment of hiragana as a consistent phonetic script. In addition, the sociolinguistic role of hiragana during the Heian period is discussed, highlighting its contribution to the nationalization of Japanese literary language. The findings of the study demonstrate that hiragana should be regarded not only as a phonetic writing system but also as a significant national linguistic phenomenon.

***Keywords:** hiragana, Japanese writing system, manyogana, phonology, graphematic evolution, mora.*

KIRISH

Hiragana yozuv tizimi yapon tilining fonetik asoslarini aks ettiruvchi muhim vosita bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanishi yapon tilshunosligi tarixida alohida o'rin tutadi. Ushbu yozuv tizimi logografik va fonetik elementlarning uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelgan bo'lib, yapon tili o'rganuvchilari uchun fonetik jihatdan qulay va tushunarli vosita hisoblanadi. Tarixiy manbalar va olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, hiragana tizimi tasodifiy paydo bo'lmagan, balki kanji belgilarining fonetik talqinlari asosida soddalashtirilgan va fonologik moslashuv orqali shakllangan milliy fonetik tizimdir.

Hiragana yozuvini o'rganish yapon tilini o'rganish jarayonining boshlang'ich bosqichi sifatida katta ahamiyatga ega, chunki bu tizim orqali talabalar yapon tilining ritmik va fonetik tuzilishini tushunib, keyingi grammatika va leksik materiallarni osonroq egallashlari mumkin. Shu bilan birga, hiragana yozuvi yapon adabiyotining milliy lashtirilishida ham muhim rol o'ynagan, xususan, Heian davrida ayollar yozuvi

sifatida jamiyatda keng qo'llanilishi milliy adabiy asarlarning shakllanishiga yordam bergan.

Mazkur maqolada hiragana yozuv tizimining kelib chiqishi, shakllanish jarayoni, fonologik va madaniy-sotsiolingvistik jihatlari hamda uni o'rgatish metodikalari tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – yapon tilini o'rganuvchilar uchun hiragana tizimini samarali o'qitishning nazariy va amaliy jihatlari aniqlash va ko'rsatishdir. Shu nuqtai nazardan, maqola kirish qismi bilan bevosita bog'liq bo'lgan annotatsiyada tadqiqotning ahamiyati va uning yapon tilini o'rgatish jarayonidagi o'rni ta'kidlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yapon yozuv tizimining kelib chiqishi Sharqiy Osiyoda sodir bo'lgan madaniy, siyosiy va lingvistik jarayonlarning o'zaro tasir natijasi hisoblanadi. Uning hozirgi ko'rinishi logografik va fonetik qatlamlarning uyg'unlashuviga asoslangan bo'lib, hiragana, katakana va kanji yozuv tizimlari bir vaqtni o'zida foydalanib kelinadi. Tilshunos olimlar bu yozuv tizimlarining shakllanishini turli nazariy yondashuvlar orqali izohlab berishgan. Bu nazariy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, yapon tilining fonetik tuzilishi, grammatik xususiyatlari asosida yaratilgan fonetik yozuv ya'ni hiragana – yapon yozuv tizimining eng muhim qismi hisoblanadi.

Xitoy yozuvi yapon tili sharoitiga mos bo'lmaganligi uchun fonetik moslashuv jarayoni tabiiy ravishda yuzaga kelganini ifodalaydi. Ularning fikriga ko'ra, milodiy V-VI asrlarda Xitoydan kirib kelgan kanji, avvalo, semantik ma'noda ishlatilgan, lekin yapon tilining grammatik tuzilishida semantik yozuv yetarli bo'lmagan va fonetik belgilash tizimi zarur bo'lgan. Yapon tili agglutinativ til bo'lgani va so'zlarda grammatik qo'shimchalar ketma-ket kelgani uchun har bitta morfologik birlikni alohida ifodalash zarur bo'lgan. Logografik belgilar esa bunday moslashuvchanlikni ta'minlay olmagan. (Reischauer va Jansen, 1988, b.52-53)

Shu jarayonda kanji belgilarining fonetik talqiniga moslangan yapon yozuvi – Manyogana paydo bo'ldi. Manyogana yapon tili fonologiyasini yozma shaklda ifodalashga qaratilgan "ilk fonetik urinish" deb baholaydi. (Samuel Martin, 1987, b.45). Martin yozadi : "Manyogana logografik tizimning fonetik ma'noda talqin qilinishi hisoblanadi va yapon tilining tovush tizimini aks ettirish uchun yaratilgan eng erta yozuv tizimidir." (Samuel Martin, 1987, b.46)

Manyogananing afzalligi – fonetik ma'no berish bo'lgan, lekin kamchiligi bitta tovushni ifodalash uchun 8-12 ta har xil kanji qo'llanishi mumkinligi bo'lgan. Bu esa yozuv tizimni juda qiyinlashtirgan. Henshallni izohlashicha, "Manyogana yapon tili fonologiyasini aks ettirgan bo'lsa-da, amaliy jihatdan haddan tashqari qiyin tizim bo'lib, yozish tezligi va aniqligini sezilarli darajada cheklagan" (Henshall, 1995, b.25)

Manyogana belgilarining qo'lda tez va oson yozilishi natijasida kursiv shakl – sosho paydo bo'ladi. Sosho kanjilarning soddalashtirilgan, o'qish oson bo'lgan shakli bo'lib, grafemalarning asta-sekin fonetik belgilar darajasiga o'tishini ta'minladi.

Bugungi ishlatilayotgan Hiragana belgilarining 80 foizi soshodan kelib chiqqan kanji shakllarining evolyutsiya natijasi hisoblanadi. Masalan: あ — 安 kanjisidan, い — 以 kanjisidan, う — 宇 kanjisidan, え — 衣 kanjisidan, お — 於 kanjisidan kelib chiqqan. (Henshall, 1995, 25–29-betlar). Bu tarixiy dalillar hiragana yozuv tizimini tasodifiy paydo bo'lgan tizim emasligini isbotlaydi. Va shu bilan birgalikda kanjidagi fonetik qatlamning ongli soddalashtirilgan natijasi ekanligini ko'rsatib beradi.

Heian davrida (794-1185) hiragana jamiyatda keng qo'llana boshladi. Buning isbotini Reischauer va Jansen ismli olimlar o'z asarida ko'rsatib o'tgan. Ularning aytishicha aynan shu jarayon “Yapon adabiyotining milliylashuvi” deb atalgan. Xususan, saroy ayollari kanji yozuvini murakkab deb hisoblashganligi uchun fonetik jihatdan qulay bo'lgan hiraganadan foydalanishgan. Buning oqibatida hiragana yozuv tizimi yapon adabiyotning asosiy yozuv tizimiga aylanadi. (Reischauer va Jansen, 1988, b.87-88)

Undan tashqari Timothy Stout ismli olim ham o'z fikrini asarlarida ifodalab bergan. U hiraganani yapon tilini o'rganuvchilar uchun “asosiy kirish bosqichi” deb baholaydi. Uning fikriga ko'ra, fonetik yozuvni yaxshi o'zlashtirgan o'quvchi keyingi bosqichlarda grammatikadagi tuzilmalarni ancha oson o'rgana oladi. (Timothy Stout, 2011, b.11-12).

Yuqorida keltirilgan olimlarning qarashlari bo'yicha, yapon yozuvi o'zining logografik ildizlariga qaramay, fonetik ifodaga bo'lgan ehtiyoj tufayli asta-sekin milliy fonetik tizim – Hiragana paydo bo'lgan. Bu xodisa tilshunoslikda o'zgacha fenomen hisoblanadi. Fonetik va semantik yozuvning bir tizimida uyg'unlashgan kamdan kam holatdan biri ekanligi tushunib olsa bo'ladi.

Hiragana tizimining shakllanishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bir nechta asosiy nazariy(ilmiy) yo'nalishlarga bo'linadi. Birinchisi, grafematik evolyutsiya nazariyasi, ikkinchisi esa fonologik moslashuv nazariyasi, uchinchisi esa madaniy – sotsiolingvistik yondashuv hisoblanadi. Bu ilmiy nazariyalar yapon tili yozuv tizimini yanada chuqurroq o'rganishga yordam beradi. Yuqorida berilgan har bir yo'nalishda olimlar tomonidan ilgari surilgan ilmiy-nazariy dalillar mavjud. Ular Hiragana yozuv tizimini faqat fonetik tizim sifatidagina emas, shu bilan birgalikda, yapon tilining milliy o'ziga xosligini ifodalovchi lingvistik fenomen sifatida baholashadi.

1) Grafematik evolyutsiya nazariyasi

Grafematik evolyutsiya yapon yozuv tizimi shakllanishining eng asosiy tushunchalaridan hisoblanadi va har bir harf shaklining tarixiy ildizi mavjudligini

isbotlaydi. Olim Henshall bu yondashuvni to'laqonli ilmiy asos bilan ko'rsatib bergan olimlardan biri hisoblanadi. U hiragana belgilarining har biri qaysi kanji belgisidan kelib chiqqanini grafik rekonstruksiya orqali ko'rsatib beradi. Masalan uning tahliliga ko'ra , か belgisining kelib chiqishi 可 kanjisining kursiv shakliga borib taqaladi. き — 幾 ning soddalashtirilgan sōsho varianti. つ — 川 belgisi kursivlashganda uchta pastga qaragan yoy shakliga aylanadi. (Henshall, 1995, 22-25-betlar) Henshallning tadqiqotlari shu darajada aniqki, Hiragananing har bir belgisining qadimiy shakli va zamonaviy shaklini yonma yon grafik tahlil bilan ko'rsatib bergan. Bu ilmiy yondashuv shuni ko'rsatadiki, hiragana belgilari tasodifiy emas, balki grafematik evolyutsiya mahsuli ekanligini ifodalaydi.

Timothy Stout ham aynan shu fikrni qo'llab quvvatlaydi va sosho shakllarini o'rganish o'quvchilarga hozirgi hiragana harflarini eslab qolishda yordam berishini takidlaydi. Uning fikricha: “Hiragana harflarining shakli tarixiy asosga ega bo'lganligi tufayli, ularni kanjilar bilan bog'lab o'rganish o'quvchi xotirasini mustahkamlaydi” (Timothy Stout, 2011, b.18-19). Bu yondashuv yapon tili yozuvining bosqichma - bosqich rivojlanishini ilmiy isbotlaydi.

2) Fonologik moslashuv nazariyasi

Yapon tili yozuv tizimi fonologik tuzilishga mos kelishi kerak bo'lgan edi, chunki yapon tili mora taktli(bo'g'inli) til hisoblanadi. Fonologik moslashuv yapon tilidagi tovush birliklarining yozuviga to'g'ri moslashishi kerakligini anglatadi. Manyogana(ilk ishlab chiqilgan hiragananing ko'rinishi) fonologik birlikni ko'rsatish uchun turli kanjilar qo'llanilgan bo'lsa, hiragana yozuvi harflari aynan bitta tovush – bitta grafema printsipiga asoslanadi.

“Yapon fonologiyasining markaziy birligi – mora(bo'g'in) hisoblanadi. Hiragana yozuvi harflarining har biri aynan bitta mora(bo'g'in)ni ifodalaydi. Bu xususiyat yapon tilidagi ritmik tuzilishni yozuvga mukammal ko'chiradi.” (Eleanor Jorden, 1987, b.15-16) Bu ilmiy kuzatuv juda muhim hisoblanadi, chunki ko'pgina g'arb tillarida “bo'g'in” asosiy birlik bo'lsa, yapon tilida aynan mora asosiy birlikdir. Bu esa fonetik yozuvni talab qiladi. Shuning uchun hiragana fonetik, muntazam tovush tizimiga mos va talaffuzga yaqin yozuv tizimi sifatida shakllanib borgan.

Olim Samuel Martin ham fonologik moslashuvni asoslab bergan olimlardan biri hisoblanadi. U manyogana davrida bir nechta kanji bir tovushni bildirganini, bu esa fonologik aniqlikni buzganligini ilmiy dalillar bilan isbotlab beradi: “Manyogana fonetik maqsadni bajargan bo'lsada, uning ko'p variantli ekanligi fonem-mora uyg'unligini buzgan. Hiragana esa yapon tili fonologiyasini to'liq ifodalashga erishilgan yagona yozuv tizimidir” (Samual Martin, 1987, b.65-67). Bu yondashuv hiragana yozuv tizimini fonologik ehtiyoj mahsuli sifatida ilmiy asoslab beradi.

3) Madaniy-sotsiolingvistik yondashuv nazariyasi

Yapon tili yozuv tizimini faqat lingvistik nuqtai nazardan emas, balki madaniy – sotsiolingvistik jarayonlar orqali ham tahlil qilinishi zarur. Heian davrida adabiyotning rivojlanishi hiragana yozuv tizimini jamiyatda keng qo'llanishiga sabab bo'lgan.

“Hiragana yozuv tizimi ayollar yozuvi sifatida shakllangan bo'lsada, aynan shu yozuv tizimi yapon tili adabiyotini milliy tusga ega bo'lgan mustaqil hodisaga aylantirdi.” (Reishchaurer & Jansen, 1988, bet. 88-89). Bu gap tarixiy manbalarda ham ko'rsatilgan. Heian davrida saroylarda erkaklar ko'proq rasmiy hujjatlarda kanjidan foydalanishgan, ayollar esa fonetik tomondan soddaligi tufayli hiraganada asarlar yozishgan. Natijada: Murasaki Shikibu — Genji monogatari nomli asari, Sei Shōnagon — Makura no sōshi nomli asari, Kagerō nikki asari, Izumi Shikibu nikki kabi asarlar yapon tili adabiyotining poydevorini yaratdi. Bu jarayon tilshunoslikda “sotsiolingvistik ajralish orqali milliy yozuv tizimining shakllanishi” deb ataldi. Bu ilmiy yondashuvlar shuni ko'rsatib beradiki, hiragana yozuv tizimi, faqat, lingvistik tomondan emas, balki madaniy tomondan rivojlanish natijasi ekanligini ko'rsatib beradi.

XULOSA

Ushbu maqolada yapon yozuv tizimining fonetik va semantik jihatlari, xususan hiragana tizimi tarixi va shakllanish jarayoni tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hiragana yapon tilining logografik ildizlariga ega bo'lishiga qaramay, fonetik ehtiyojlar natijasida shakllangan milliy fonetik tizimdir.

Hiragananing paydo bo'lishi bir necha nazariy yo'nalishlar orqali izohlangan: grafematik evolyutsiya nazariyasi har bir belgi tarixiy ildizga ega ekanligini, fonologik moslashuv nazariyasi esa yapon tilining mora asosidagi ritmik tuzilishini yozuvga mukammal ko'chirishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, madaniy-sotsiolingvistik yondashuv Hiraganani jamiyatda keng qo'llanilishiga va yapon adabiyotining milliylashuviga olib kelganligini isbotlaydi.

Natijada, hiragana nafaqat yapon tilini o'rganishda fonetik asos sifatida, balki milliy yozuv tizimi sifatida ham muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ta'kidlaydiki, fonetik va semantik qatlamning uyg'unlashuvi yapon tilidagi nodir lingvistik fenomen bo'lib, uni o'rganish jarayonida tilshunoslik, madaniyat va adabiyot bilan bog'liq kompleks yondashuvni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Henshall K. G. A History of the Japanese Language. – Oxford: Oxford University Press, 1995.

2. Jorden E. H. Japanese: The Spoken Language. Vol. 1. – New Haven: Yale University Press, 1987.
3. Martin S. E. The Japanese Language through Time. – New Haven; London: Yale University Press, 1987.
4. Reischauer E. O., Jansen M. B. The Japanese Today: Change and Continuity. – Tokyo: Charles E. Tuttle Company, 1988.
5. Stout T. Japanese Writing System: An Introduction for Learners. – Tokyo: Japan Times Publishing, 2011.
6. 清少納言 枕草子 (Makura no sōshi). – 東京: 岩波書店.
7. 紫式部 源氏物語 (Genji monogatari). – 東京: 岩波書店.